



## PREPARATION OF DISAGREED YOUNG PEOPLE FOR ADDITIONAL PROFESSIONS - CRAFTS

### UYUSHMAGAN YOSHLARNI QO'SHIMCHA KASBLARGA - HUNARMANDCHILIK SOXALARIGA TAYYROLASH

Raximova Mohinur Ravshan Qizi

Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti "Ta'lim tarbiya nazriyasi va metodikasi: texnologik ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti

#### Annotation

In this article, information on unorganized youth, how the unorganized youth layer was formed, the problems of directing them to additional professions, employment of young people in terms of vocational guidance have been partially solved, unorganized, solved. The article provides information on the benefits of sending unorganized youth to additional jobs in the field of handicrafts and training young people in handicrafts.

**Keywords:** occupation, youth, profession, craft, unorganized youth, profession,

#### Аннотация

В данной статье частично решена информация о неорганизованной молодежи, как формировался слой неорганизованной молодежи, проблемы направления их на дополнительные профессии, трудоустройства молодежи в условиях профориентации, неорганизованно, решены. В статье представлена информация о преимуществах направления неорганизованной молодежи на дополнительные работы в сфере ремесел и обучения молодежи ремеслам.

Ключевые слова; профессия, молодежь, профессия, ремесло, неорганизованная молодежь, профессия,

#### Annotatsiya

Ushbu maqolada uyushmagan yoshlar haqida ma'lumot uyushmagan yoshlar qatlami qay tarzda vujudga kelganligi ularni qo'shimcha kasb hunarga yo'naltirish, kasbga yo'llash hqida yoshlarni ish bilan taminlash borasida muammolar qisman o'z yechimin, uyushmagan, yechimini topgan. Maqolada uyushmagan yoshlarni qo'shimcha ish bilan taminlash qo'shimcha hunarmandchilik soxasiga yo'llash borasida qanday imtiyozlar borligi yoshlarni hunarmandchilik soxalariga tayyorlash haqida malumotlar keltirilan.





**Kalit so'zlar:** kasb, yoshlar, hunar, hunarmandchilik, uyushmagan yoshlar, kasb-hunar.

## **KIRISH**

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutahassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim, fan texnikaning bugungi kundagi taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali bilimdon o'z kasbiniing fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.MIRZIYOYEV tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalr qatorida uyushmagan yoshlar bilan ishlash bu qatlamni o'rganish ularni birlashtirish bugungi kunni dolzarb muammolaridan biri bo'lib turubdi. Yoshlar shaxsini uni yuksak ma'naviy fazilatini kamol toptirish milliy istiqloлмаfkurasini shakllantirish yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat mustaqil vatanimizga mehr muhabbat ruhida tarbiyalsh barchamizni oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

Uyushmagan yoshlar qatlamining vujudga kelish sababi ota-onalarning farzandiga be e'tiborligi eskicha fikrlashi qoloq dunyoqarashidir. Bu albatta o'sib kelyotgan yosh avlodni kelajagiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Ota onalarning o'z farzandlariga vaqt ajrata olmasliklari o'qib dunyoni olib berasanmi degan saviyasi past bo'lgan fikrlari juda katta ta'sir qiluvchi omillardan biridir.

## **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi**

O'zbekiston yoshlar ittifoqi birinchi o'rinbosari Alisher Sa'dullayev ko'pchilini o'ylantiradigan rasmiy foydalanishda bo'lgan atama "UYUSHMAGAN YOSHLAR" ga izoh berdi. Uning aytishicha bu termindan foydalanishga ikkita asos bor. Birinchidan xalqaro tajribada xususan Qirg'iziston Rossiyada ushbu termindan foydalanishni o'rgandik. Ikkinchidann ayrim kategoriyaga mansub yoshlar mavjud. Masalan o'qishga kirolmagan jamoat ishlarida faol bo'lmagan yoshlar ittifoqi to'liq ma'lumotga ega bo'lmagan yoshlar ishlamaydigan yoki jinoyat sodir etishga moyilligi bor yoshlarga nisbatan "UYUSHMAGAN" so'zi qo'llanilishi mumkun.

Kasb-hunarga yo'naltirishning shaxsga nisbatan bo'lgan aspekti birinchi navbatda shaxs o'ziga ongli ravishta kasb hunar tanlashi bilan bog'liqlikda aks etadi. Shuning uchun eng muhim vazifa o'spirinda mustaqil qaror qabul qilish fazilatini shakllantirish va rivojlantirish o'zi uchun uning qiziqishlari va kelajagini qanday tasavvur qila olishi va barcha jihatlarini inobatga olgan holda u yokki bu kasbni





tanlashida o'z fikriga ega bo'lishini taminlashdan iborat. Biz tomondan kasb hunarga yo'naltirish deganda shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimi sifatida ko'rildi.

### **Mulohaza va takliflar**

Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida quyidagi yo'naltirishlardan foydalanishi mumkun.

-Axborotli dasturlar, bukletlar, reklama agitatsiya

- Tashkilotlarga ekskursiyalar uyushtirish bevosita tashkilotlarga borib ularga ish jarayoni, tartibi va ish yuritiladigan soha bilan tanishish

-ma'naviy marifiy tadbirlar o'tkazish yo'li orqali

-Kasb hunarga oid filmlar va video roliklar korish dars jarayonida yoki ma'lum bir ajratilgan kurslar davomida o'quvchi yoshlarni kasblar olami bilan tanishtirish.

Yoshlarni ish bilan taminlash masalasi hamon eng dolzarb vazifa bo'lmoqda. Bugungi kunda yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini ochish ularni halol mehnat qilib daromat topishi maqsadida ko'p ishlar qilinmoqda. Yoshlarni ish bilan taminlash uchun avvalo ular o'ratsida tadbirkorlikni hunarmandchilikni keng rivojlantirish bu borada yangi imkoniyatlarni yaratish maqsadida ko'pgina chora tadbirlar ko'rilmogda.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutahassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali bilimdon o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor oqtisodiyotiga bardosh beradigan raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yurituvchi, puta izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymo e'tiqodli insonlar voyaga yetishadi. Buning uchun uzluksiz ta'lim tizimining brcha jabhalarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati kattadir. O'zbekistanimizda yoshlarni tarbiyasiga nisbatan qo'yayotgan eng muhim talablaridan biri ularda mehnt qillish ehtiyojini tarbiyalashdan iboratdir. O'smirlar va ilk oo'spirinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ham shaxsiy ham iyjimoiy muammo bolganligidan bu jarayonda ota-onalar jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar hollarda kattalarning maslahatlari va tafsiyalarini hisobga olgan holda kattalrning maslahatlari va tafsiyalarini hisobga olgan holda qat'iy fikrga qarorga kelishlari mumkun.





## **XULOSA**

O'quvchilarni ta'lim tizimida mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlashva ularningkasb hunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri kasb tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik qobiliyati yuksak bo'lishi fan asoslarini turmush bilan bog'lab o'rganishi, to'garak va qo'shimcha yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb hunar to'g'risida, ma'ruzalar o'qilishi zarur. Uyushmagan yoshlarni qo'shimcha kasblarga hunar yo'nalishlariga yo'llash borasida ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning barcha hududlarida xalq hunarmandchiligining o'ziga xos markaz va yushmalari bo'lib ular jahon madaniyatiga buyuk qadriyatlari bilan hissa qo'shgan. Yoshlarni hunarga yo'naltirish muhim omillardan biri. Yurtimizdagi hunar maktablari yoshlarimiz uchun kerakli makondir. Tadbirkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida yosh tadbirkor loyihalari ishlab chiqilmoqda ularga kam foizli kreditlar ajratilmoqda.

## **Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yhati**

1. G.I. Ishmurodova G.M. Mirzayeva E. M Mirzayev
2. Xabar. Uz
3. Fayllar. Org

